

терминлар сифатида активлашган арабча сўзлар ана шу кейинги манбалардан олинган эди.

Хулоса қилиб айтганда тил чегара билмас уммонга ўхшайди. Унидан фойдаланувчилар барча замонларда унинг кўламини кенгайтириб боришган. Ҳалқлар ўртасидаги алоқа воситаси бўлган тил доим ривожланиб баъзан айрим сўзлар эскириб, мулоқатдан чиқиб бораверади. Буни биз ушбу мақолада келтирилган мисоллар орқали кузатишимиз мумкин.

## АДАБИЁТЛАР

1. Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш 2-нашр. - Т.Шарқ, 2010. 69-150 б.
2. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Том II. Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: – Языки русской культуры, 1995.- 766 с.
3. Арутюнова Н. Д. Выделение // Логический анализа языка. Ментальные действия. – М.: Наука, 1993.-216 с.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974.- 307 б.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг лексикологияси. –Т.: фан, 1981.-654.

## APPLIKATIV MODEL LINGVISTIK TAHLIL USULI SIFATIDA

**Samandarov R.D**

SamISI, Tillarni o'qitish  
kafedراسи dotsenti (PhD)

**Аннотация.** Mazkur maqolada tilshunoslikda modellashtirish, xususan applikativ model, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ishda applikativ modelning transformatsiya va derivatsiya jarayonlari bilan bog'liqlik hamda farqli jihatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada yasama so'zlarning applikativ usul bilan hosil bo'lishi, leksik derivatsiyada operand, operator hamda applikator atamallari misollar asosida tavsiflangan.

**Калит so'zlar.** Applikatsiya, applikator, relyator, operand, operator, genotip, fenotip.

**Аннотация.** В данной статье мы поговорим о моделировании в лингвистике, в частности о аппликативной модели, ее специфических особенностях. В исследовании также анализировалась взаимосвязь и различные аспекты аппликативной модели с процессами трансформации и деривации. В то же время в статье на основе примеров рассматривается образование производных слов аппликативным методом, операнд, оператор и аппликаторные термины в лексической деривации.

**Ключевые слова:** Аппликация, аппликатор, релятор, операнд, оператор, генотип, фенотип.

**Annotation.** In this article, we will talk about modeling in linguistics, in particular about the applicative model, its specific features. The study also analyzed the relationship and various aspects of the applicative model with the processes of transformation and derivation. At the same time, the article considers the formation of derived words by the applicative method, operand, operator and applicator terms in lexical derivation on the basis of examples.

**Keywords:** Application, applicator, relator, operand, operator, genotype, phenotype.

Modellashtirish, ko'pgina tilshunoslarning fikricha, lingvistik matn tadqiqotining eng samarali usullaridan biridir. "Ob'yektni bilish - deb yozadi I.B. Novik, - uni modellashtirish demakdir". Keng, umumiy kognitiv ma'noda modellashtirish "bilish jarayonining ma'lum bir umuminsoniy jihatini"<sup>6</sup> ifodalaydi. Shunga ko'ra, hozirda tilshunoslikda transformasion model, bevosita ishtirokchilar modeli, shuningdek, distributiv modelga tayanib amalga oshirilgan ishlar talaygina. Shu bilan birga, transformasion model singari yaratuvchanlik hamda sinergetik kuchga ega bo'lgan applikativ model doirasida olib borilgan ishlar tilshunos olimlarimiz tomonidan kun tartibiga endigina qo'yilmoqda.

Aplikativ model bir qator psixolingvistik xususiyatlarga ham ega. Ayrim olimlarning fikricha, applikativ model zanjirsimon bog'lanishga tayanadi. Ammo, bizningcha, shunday bo'lsa-da, applikativ ham bog'lanib keluvchi zanjirlar bilan, ham kompleks birliklar bilan ish ko'radi. Bunda zanjirlarning tuzilishi fenotip (tashqi ko'rinish), majmualarning strukturasi esa - genotip (birliklarning qurilishi, konstruksiyasi)ni hosil qiladi. Bunday qarashlar S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevalar applikativ yaratuvchi modelda berilgan material tahlilida uchraydi<sup>7</sup>.

Bu singari fikrlarni A.A.Leontevda ham uchratamiz. Olim ikki turdagi ob'yektlarni - lingvistik (genotipik) va nutqiy (fenotipik) yaratuvchanlikni qayd etadi<sup>8</sup>. Shulardan birinchisi kompleks deb ataladi. "Kompleks - bu tartibga solingan elementlarning to'plamidir"<sup>9</sup>.

Aplikativ modelning asosiy vazifasi to'g'ri komplekslarni va komplekslarning to'g'ri transformatsiyasini yaratishdir. Ushbu model doirasidagi o'zgarishlar Chomskiydagidek belgilanmaydi<sup>10</sup>, balki hisoblab chiqiladi. Hisob ikki bosqichda olingan jumlar to'plamlariga asoslanadi: birinchisi, sinflar to'plamini olish va ikkinchisi, ushbu to'plamga ma'lum cheklovlar qoidalarini qo'llash.

Shuni ham aytish kerakki, universal xarakterli genotipik tilning abstrakt materialiga tatbiq etilgan applikativ model biror bir konkret tilni nazarda tutmaydi, balki barcha tillar uchun umumiydir. Mazkur qoidalarni konkret til materialida qo'llash lozim bo'lganda, yarim abstrakt holatdagi alohida genotiplarga murojaat

---

<sup>6</sup>. Qarang: Новик И.Б. О моделировании сложных систем. – М., 1965. – С.300.

<sup>7</sup>. Qarang: Шаумян С.К., Соболева П.А. Аппликативная порождающая модель и исчисление трансформаций в русском языке. – М., 1963, – С. 35.

<sup>8</sup>. Qarang: Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания / А.А. Леонтьев. - Изд. 3-е. - М., 2005. С.116.

<sup>9</sup>. Qarang: Шаумян С.К. Структурная лингвистика / С.К. Шаумян - М. 1965. С.184.

<sup>10</sup> Qarang: Chomsky N. Language and mind / N. Chomsky. – Enlarged ed-n. – N.Y. etc.: Harcourt Brace Jovanovich, 1972. – XII. - 194 p.

etishga to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tili genotipi, rus tili genotipi, ingliz tili genotipi va h.k<sup>11</sup>.

Applikativ modelning muayyan tillar materialida qo'llaninishi har bir tilning ichki qonun - qoidalariga, ularda qo'llanuvchi applikatorlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Jumladan, agglyutinativ tillarda affikslar, ko'makchi va bog'lovchilar muhim ahamiyat kasb etsa, analitik tillarda fe'l shakllari, bog'lovchi, predlog, yordamchi fe'llar kabi morfologik vositalar katta mavqega ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, qurilmalar ikki xil yo'l bilan hosil bo'ladi: 1. qurilmalarning applikatsiyasi; 2. qurilmalarning transformatsiyasi.

Applikativ model to'rtta o'zaro bog'langan modellarni (generatorlarni) o'z ichiga oladi:

- 1) mavhum generator;
- 2) so'z generatori;
- 3) jumla generatori;
- 4) transformasion generator;

Applikativ modelning yaratuvchanlik (porojdayushaya) kuchi sodda ob'yektlardan murakkab ob'yektlarning shakllanishida namoyon bo'ladi. Aynan ana shu narsa uni mustaqil lingvistik nazariya tarzida belgilashga imkon yaratadi. Mazkur modelning tavsifi uchun P.A.Sobolevaning so'z yasalişini modellashtirishga bag'ishlangan ilmiy ishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif mazkur ishida applikativ model mohiyatini imkon qadar sodda tilda izohlab berishga harakat qilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, applikativ model qo'llanilgan har qanday ob'yekt derivatsiya mahsulini taqozo etadi. Jumladan, so'z yasalişini ham ana shunday xususiyat kasb etadi: *ishchi, qalamdon, bog'bon va h.k.*

Keltirilgan misollarni biz derivasion nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, *ish* – operand, *-chi* – operator, hosil bo'lgan struktura esa (*ishchi*) derivat sanaladi.

Bunda shunisi xarakterliki, o'zak dastlabki operand (derivatsiya xom-ashyosi), relyatorlar esa (affikslar) operator vazifasini bajaradi. Ayni paytda derivatsiyani voqelantiruvchi birdan - bir vosita applikatsiya sanaladi. Applikatsiya deganda, bu o'rinda relyatorlarning asosga bog'lanishi tushuniladi.

Lingvistik jihatdan applikativ generativ model transformasion va BI modellardan ayrim jihatlarga ko'ra farq qiladi. Unda ikki xil operatsiyalardan foydalaniladi-applikatsiya va transformatsiya. Applikatsiya obektlarni shakllantirish uchun, transformatsiya esa ularning invariant o'zgarishi uchun uchun yagona qoidadir. Quyida aplikativ apparatni batafsil ko'rib chiqaylik. Ushbu modelda ishlatiladigan belgilar alifbosi ideal asoslarning to'rtta sinfining ramzlaridan iborat:

---

<sup>11</sup>. Qarang: Шаумян С.К., Соболева П.А. Кўрсатилган асар, 10-11бетлар.

|   | N  | V  | A  | D |
|---|----|----|----|---|
| N | O  | -  | -  | O |
| V | VN | O  | O  | - |
| A | AN | O  | O  | - |
| D | O  | DV | DA | O |

N - (uy, baliq, oyna kabi tub otlarning tayanch sinfi sifatida talqin etilgan),

V- (bormoq, o'tirmoq kabi fe'llarning asos sinfi sifatida talqin qilingan),

A- (oq, katta kabi sifatlarning tayanch sinfi sifatida talqin etilgan) va

B- D - (ortda, oldinda kabi ravishlarning tayanch sinfi sifatida talqin etilgan).

Buni misollarda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1) *tinch*  $R_3V$  – fe'l sifatning pozitsiyasida ( $R_3O$  – tub sifatni taqozo etadi);

2) *gulli*  $R_3N$  – ot sifatning pozitsiyasida;

3) *oshpaz*  $R_2N$  – otning pozitsiyasida ( $R_2O$  – tub otni taqozo etadi).

Kompozision yo'l bilan yasalgan so'zlarda bu quyidagicha ifodalanadi:

1) *muzyorar*  $R_3NV$  – ot va fe'l sifat pozitsiyasida;

2) *oybolta*  $R_2NN$  - ot va ot otning pozitsiyasida;

3) *ko'ksulton*  $R_2AN$  sifat va ot otning pozitsiyasida.

Ko'rinadiki ayni paytda applikativ modelda ikki operatsiya faollik ko'rsatadi: applikasiya va derivatsiya. So'z yasalishi hodisasi ham derivasion jarayon doirasida vujudga keladi va shu bois applikativ model qo'llanilishini leksik derivatsiya nazariyasining ham asosiy usullaridan biri sifatida o'rganamiz.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, leksik derivatsiyasda affikslarning mavqei katta ekanligi izoh talab qilmaydi, zero, affikslar so'z o'zagi yoki negiziga qo'shib kelib, uni ikkinchi so'z bilan bog'laydi va natijada derivasion jarayon kelib chiqadi. Biroq, shuni ham aytish kerakki, har qanday affiks ham bunday xususiyatga ega bo'la olmaydi. Ayrim affikslar har doim ham applikator vazifasini bajaravermaydi. Bu haqda mulohaza yuritganida *to'satdan* so'ziga murojaat qilsak, so'zning *to'sat-* qismi ham, *-dan* affiks qismi ham ayni paytda hech qanday ma'no anglatayotgani yo'q. Shu bois mazkur so'zni faqat yaxlit holda olganimizdagina holat ravishi ma'nosini his etishimiz mumkin. Ana shundan kelib chiqib, bu o'rinda *-dan* affiksini applikator tarzida izohlay olmaymiz. Chunki *-dan* affiksi o'zi tirkalib kelayotgan so'zni keyingi so'z bilan bog'lash uchun xizmat qila olmaydi. Applikator maqomida keluvchi affikslar esa bu jihatdan ancha faol hisoblanadi. Fikrimiz dalilini quyidagi misollarda ko'ramiz: *to'satdan* (applikator nolga teng); *smerunum* (ser- applikator).

Applikativ modelning mantiqiy tuzilishining o'ziga xosligi shundaki, unda yaratuvchanlik jarayoni ikki xil darajada — konstruksiyalar darajasi va kuzatish darajasida yuzaga kelishida namoyon bo'ladi.

Yaratuvchanlik jarayoni ideal ob'yektlarni (so'z va jumalarning konstruktiv analoglarini) ajratishdan boshlanadi. Ular yaratuvchanlik jarayonining ikkinchi bosqichida muayyan interpretasion qoidalar yordamida tom ma'noda muayyan tilning so'zlari va jumalariga aylanadi. Xom ashyosi ideal ob'yektlar bo'lgan yaratuvchanlik mexanizmi interpretatsiya qoidalariga bo'ysunmagan holda ishlaydi. Ideal ob'yektlar o'zida muayyan tilning rod, son, kelishik, egalik, shaxs-son, zamon va boshqa grammatik kategoriyalarini aks ettirmaydi. Bu va shunga o'xshash kategoriyalar faqat modelni interpretatsiya qilish jarayonida paydo bo'ladi. Shuning uchun, ideal jumalarni shakllantirish uchun ideal so'zlar va qoidalar bilan mexanizmning o'zi yoki u tomonidan yaratilgan ideal ob'yektlar to'plami ideal til sifatida qaralishi mumkin, bu, xususan, tipologik taqqoslashlar uchun vositachi til sifatida ishlatilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, derivatsiya hodisasi voqelanishining asosiy mexanizmlaridan ikkinchisini transformasion model tashkil etadi. Biroq applikativ va transformasion modellar o'rtasida jiddiy farq mavjud bo'lishiga qaramay, ular muayyan nutq muhitida o'zaro kesishishlari ham mumkin. Bunday vaziyatda applikativ model o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan bo'ladi. Shu bilan birga, applikativ modelning transformatsion model bilan kesishuvi jarayonida hali izohtalab, tadqiqatlab masalalar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, applikativ modelning sinergetik kuchini ilmiy o'rganish masalasi, nazarimizda, g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания / А.А. Леонтьев. - Изд. 3-е. - М., 2005. С.116.
2. Новик И.Б. О моделировании сложных систем. – М., 1965. – С.300.
3. Шаумян С.К., Соболева П.А. Аппликативная парождающая модель и исчисление трансформаций в русском языке. – М., 1963, – С. 35.
4. Шаумян С.К. Структурная лингвистика / С.К. Шаумян - М. 1965. С.184.
5. Chomsky N. Aspects of the theory of syntax / N. Chomsky. – Cambr. (Mass.): MIT, 1965. – X. – P. 251.